



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MAKTAB VA OILA UZVIYILIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI: BOLA HUQUQLARI VA TARBIIYASI INTEGRATSIYASI

Xamidova Fariza Shuxrat qizi
O'zbekiston Milliy universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bola shaxsining rivojlanishida maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikning ijtimoiy-huquqiy hamda pedagogik asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi bugungi globalashuv sharoitida yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan tahlika va bo'shliqlarni to'ldirish zarurati bilan asoslanadi. Maqolada miqdoriy va sifat tahlili metodlaridan foydalanilgan holda, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki darajasi aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktab va oila o'rtasidagi tizimli uzviylik o'quvchilarning nafaqat akademik o'zlashtirishini, balki ularning huquqiy ongini shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muallif tomonidan ushbu hamkorlikni huquqiy tartibga solish va ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Maktab, oila, uzviylik, bola huquqlari, ijtimoiy sheriklik, tarbiya, ta'lim tizimi, pedagogik mahorat, huquqiy madaniyat, mas'uliyat.

СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ШКОЛЫ И СЕМЬИ: ИНТЕГРАЦИЯ ПРАВ РЕБЕНКА И ВОСПИТАНИЯ

Хамидова Фариза Шухрат кизи
Национальный университет Узбекистана, преподаватель

Аннотация

В данной статье исследуются социально-правовые и педагогические основы взаимодействия школы и семьи в процессе развития личности ребенка. Актуальность исследования обоснована необходимостью устранения рисков и пробелов, возникающих в воспитании молодежи в условиях современной глобализации. С использованием методов количественного и качественного анализа определен уровень вовлеченности родителей в образовательный процесс. Результаты исследования показывают, что системная преемственность между школой и семьей играет решающую роль не только в академической успеваемости учащихся, но и в формировании их правового сознания. Автором разработаны научно-практические предложения по правовому регулированию данного сотрудничества и укреплению социального партнерства.

Ключевые слова: Школа, семья, преемственность, права ребенка, социальное партнерство, воспитание, система образования, педагогическое мастерство, правовая культура, ответственность.

SOCIAL AND LEGAL MECHANISMS FOR ENSURING THE CONTINUITY OF SCHOOL AND FAMILY: INTEGRATION OF CHILD RIGHTS AND EDUCATION

Khamidova Fariza Shukhrat qizi
National University of Uzbekistan, Lecturer

Abstract

This article examines the socio-legal and pedagogical foundations of cooperation

between school and family in the development of a child's personality. The relevance of the research is justified by the necessity to address the challenges and gaps emerging in the upbringing of young people under the current conditions of globalization. Using both quantitative and qualitative analysis methods, the study determines the level of parental involvement in the educational process. The research findings indicate that systemic continuity between school and family plays a decisive role not only in students' academic achievement but also in shaping their legal consciousness. The author has developed scientific and practical proposals for the legal regulation of this cooperation and the strengthening of social partnership.

Keywords: School, family, continuity, child rights, social partnership, upbringing, educational system, pedagogical skill, legal culture, responsibility.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Zero, har qanday demokratik jamiyatning barqarorligi uning kelajagi bo'lgan yosh avlodning qanchalik bilimli, huquqiy savodxon va ma'naviy yetuk ekanligi bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda ta'lim muassasasi (maktab) va oila o'rtasidagi uzviy hamkorlikni ta'minlash, ularning bola huquqlarini himoya qilish borasidagi ijtimoiy-huquqiy mas'uliyatini yangi bosqichga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim va tarbiya jarayonini transformatsiya qilish, ayniqsa, shaxs shakllanishining ilk poydevori bo'lgan oila va maktab hamkorligini yangi sifat bosqichiga olib chiqish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammoga aylandi. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi 77-moddasida: "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boquvi, tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va barkamol rivojlanishi g'amxo'rlik qilishga majburlar", — deb belgilab qo'yilishi mazkur masalaning nafaqat pedagogik, balki konstitutsiyaviy darajadagi huquqiy mas'uliyat ekanligini tasdiqlaydi [2].

Bugungi kunda jahon ta'lim maydonida "Global fuqarolikni shakllantirish" konsepsiyasi doirasida oila va maktabning uzviyligi masalasi keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar sharoitida bolalarning axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda ushbu ikki institutning yagona strategiyaga ega emasligi "ijtimoiy uzilish" (social gap) xavfini yuzaga keltirmoqda. Oila — bola uchun ilk ijtimoiy muhit bo'lsa, maktab — uning tizimli bilim oladigan va ijtimoiy normalarni o'zlashtiradigan asosiy maydonidir. Ushbu ikki muhit o'rtasida o'zaro ishonch va pedagogik hamkorlikning yetishmasligi bolaning psixofiziologik rivojlanishiga, uning o'z salohiyatini namoyon etishiga to'sqinlik qilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur muammo jahon va mahalliy olimlar tomonidan turli rakurslarda o'rganilgan. Xususan, J.Epsteyn (Joyce Epstein) o'zining olti bosqichli hamkorlik modelida maktab, oila va hamjamiyatning o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslab bergan [4]. O'zbekistonlik olimlardan R.Safarova, M.Inomova va O.Musurmonovalar o'z tadqiqotlarida sharqona tarbiya usullari va milliy qadriyatlar asosida oila va maktab hamkorligini kuchaytirishning pedagogik mexanizmlarini yoritishgan. Biroq, bugungi kunning huquqiy va sotsiologik realligi, xususan, "ijtimoiy sheriklik" tamoyili asosida ushbu hamkorlikni huquqiy tartibga solish masalalari hali ham yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi maktab va oila uzviyligini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslarini tahlil qilish hamda bola huquqlari va tarbiyasi integratsiyasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv (systemic approach) metodidan foydalanilgan bo'lib, bunda maktab, oila va davlat bola huquqlarini himoya qilish hamda komil insonni tarbiyalash jarayonining o'zaro uzviy bog'liq elementlari sifatida talqin etiladi. Nazariy asos sifatida gumanistik pedagogika tamoyillari va huquqiy sotsiologiya metodlari tanlab olindi, bu esa

bolaning huquqiy maqomini uning ijtimoiy tarbiyasi bilan hamohanglikda o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktab va oila o'rtasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar belgilangan bo'lsa, uning predmeti ushbu hamkorlikni ta'minlovchi mexanizmlar va huquqiy normalar yig'indisidir. Axborotlarni to'plash va tahlil qilishda bir-birini to'ldiruvchi bir necha metodlar qo'llanilgan. Xususan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi va xalqaro konvensiyalarning bola huquqlariga oid normalari qiyoslanib, amaliyotdagi bo'shliqlar aniqlandi. Shuningdek, hujjatlar tahlili (content analysis) yordamida maktab va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni tartibga soluvchi nizomlar va pedagogik dasturlarning huquqiy asosi ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning empirik qismida sotsiologik so'rov (anketalashtirish va intervyu) metodidan foydalanildi. Bunda maktab ma'muriyati, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlik darajasini aniqlash maqsadida tanlanma asosida so'rovlar o'tkazildi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda statistik tahlil hamda induksiya va deduksiya usullari qo'llanilib, olingan natijalar nazariy xulosalar bilan umumlashtirildi. Tadqiqot davomida etik tamoyillarga, xususan, respondentlarning anonimligi va ma'lumotlarning xolisligiga qat'iy rioya qilindi. Ushbu metodologik xarita tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga va bola huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). Mazkur tadqiqotning empirik qismi maktab va oila hamkorligining ijtimoiy-huquqiy holatini baholash maqsadida tizimli tahlil etildi. Tadqiqotda ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash uchun reprezentativlik tamoyiliga amal qilindi. Tanlanma to'plam sifatida Toshkent shahri va viloyatidagi 12 ta umumta'lim maktabidan jami 450 nafar respondent (200 nafar ota-ona, 200 nafar o'qituvchi va 50 nafar maktab ma'muriyati vakillari) jalb etildi. Anketa so'rovnomasi natijalariga ko'ra, ota-onalarning maktab bilan huquqiy muloqotga kirishish darajasi past ko'rsatkichni qayd etdi. Respondentlarning atigi 22% qismi bola huquqlarini himoya qilishda maktab bilan amaldagi qonunchilik doirasida hamkorlik qilishini bildirgan. Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, hamkorlik asosan tarbiyaviy tadbirlar va majlislar bilan cheklanib qolgan (58%). Biroq, bolaning huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqlarini himoya qilish masalalarida tizimli integratsiya sezilmaydi. Respondentlarning 45% qismi maktab va oila o'rtasidagi majburiyatlarning huquqiy chegarasini aniq bilmasligini ta'kidlagan.

Tadqiqot doirasida maktab va ota-onalar o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama shartnomalar va maktab ichki nizomlari mazmuni tahlil qilindi. Kontent tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki:

Hujjatlarning 70% qismida faqat taraflarning intizomiy majburiyatlari ko'rsatilgan, lekin bolaning individual huquqlarini ta'minlash mexanizmi ochib berilmagan. Ota-onalarning ta'lim jarayonini boshqarishdagi ishtiroki huquqiy jihatdan "maslahat beruvchi" maqom bilan cheklangan.

Tadqiqot natijalari maktab va oilada bola tarbiyasiga yondashuv turlicha ekanligini ko'rsatdi. Quyidagi jadvalda ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarning samaradorlik ko'rsatkichlari aks etgan:

Ko'rsatkichlar nomi	O'qituvchilar bahosi	Ota-onalar bahosi	O'rtacha ko'rsatkich
Huquqiy ma'lumot almashinuvi	3.2	2.8	3.0
Ziddiyatlarni huquqiy hal etish	2.5	2.1	2.3
Bola manfaatlarini ustuvorligi	4.1	3.9	4.0

Jamoatchilik nazorati mexanizmi	2.2	1.8	2.0
---------------------------------	-----	-----	-----

1-jadval. Maktab va oila o'rtasidagi integratsiya ko'rsatkichlari (5 ballik shkalada)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Bola manfaatlarining ustuvorligi" eng yuqori ball (4.0) olgan bo'lsa-da, uni amalga oshirishning amaliy mexanizmi hisoblangan "Jamoatchilik nazorati" va "Huquqiy ma'lumot almashinuvi" ko'rsatkichlari past darajada qolmoqda.

To'plangan birlamchi ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, maktab va oila o'rtasidagi ijtimoiy-huquqiy mexanizmlar hozirda ko'proq formal xarakterga ega. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bola huquqlari va tarbiyasi integratsiyasini ta'minlash uchun nafaqat pedagogik, balki aniq huquqiy majburiyatlarni yuklaydigan "Oila-maktab-mahalla" uchligining yangi raqamli platformasini yaratish ehtiyoji mavjud. Bu esa o'z navbatida bola huquqlari buzilishining oldini olishda erta ogohlantirish tizimi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Tadqiqot davomida maktab va oila hamkorligining ijtimoiy-huquqiy asoslari tahlil qilinib, qo'yilgan maqsad va vazifalar yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

Asosiy xulosalar

Huquqiy bo'shliqlar: Amaldagi qonunchilikda maktab va ota-onalarning huquqiy mas'uliyati belgilangan bo'lsa-da, bola huquqlarini himoya qilishda ularning o'zaro integratsiyalashgan harakatlar mexanizmi (algoritmi) to'liq ishlab chiqilmagan.

Formalizm muammosi: Maktab va oila aloqasi aksariyat hollarda faqat moliyaviy yoki intizomiy masalalar bilan cheklanib, bolaning individual huquqlari va psixologik ehtiyojlari ikkinchi planga tushib qolgan.

Ijtimoiy nazoratning zaifligi: Jamoatchilik nazorati subyektlari (mahalla, kuzatuv kengashlari) va ta'lim muassasasi o'rtasidagi axborot almashinuvi raqamlashtirilmagani sababli, xavf ostidagi bolalar bilan ishlash tizimi passiv xarakterga ega.

Taklif va tavsiyalar. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, bola huquqlari va tarbiyasi integratsiyasini kuchaytirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

Huquqiy maqomni mustahkamlash: Umumta'lim maktablari va ota-onalar o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama shartnomalar mazmuniga bolaning ta'lim olish huquqi bilan birga, uning ijtimoiy-psixologik daxlsizligini ta'minlash bo'yicha aniq majburiyatlarni kiritish.

"Raqamli huquqiy yordamchi" platformasini yaratish: Ota-onalar va maktab o'rtasida tezkor aloqani ta'minlovchi, bola huquqlari buzilishi yoki tarbiyaviy muammolar haqida anonim xabar berish va yuridik maslahat olish imkonini beruvchi tizimni joriy etish.

"Huquqiy savodxonlik soatlari"ni tashkil etish: Nafaqat o'quvchilar, balki ota-onalar uchun ham "Bola huquqlari va ota-ona mas'uliyati" mavzusida muntazam huquqiy treninglar o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish.

Vakolatlarni kengaytirish: Maktab Kuzatuv kengashlari tarkibida "Bola huquqlarini himoya qilish komissiyasi" faoliyatini faollashtirish va ularga maktabdagi ma'naviy-huquqiy muhitni baholash bo'yicha qo'shimcha vakolatlar berish.

Xulosa qilib aytganda, maktab va oilaning ijtimoiy-huquqiy uzviyligini ta'minlash — bu shunchaki hamkorlik emas, balki bola manfaatlari yo'lida davlat va jamiyat institutlarining bir nuqtada birlashishidir. Taklif etilayotgan mexanizmlar bolaning huquqiy himoyasini kuchaytirish bilan birga, jamiyatda sog'lom tarbiyaviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil

23-sentyabr, O‘RQ-637-son.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
5. Inoyatova M.E. Oilada bola huquqlarini ta’minlashning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 156 b.
6. G‘oziyev E.G. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2010. – 210 b.
7. Shomurodov H.A. Maktab va oila hamkorligining huquqiy mexanizmlari: muammo va yechimlar // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 45-52.
8. Yusupova F.M. Bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning ijtimoiy-huquqiy tizimi // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2021. – №6. – B. 12-18.
9. James A., Prout A. Constructing and Reconstructing Childhood: Contemporary Issues in the Sociological Study of Childhood. – London: Routledge, 2015. – 280 p.
10. United Nations Convention on the Rights of the Child. – UN General Assembly, 1989.
11. Karimov A.N. Ta’lim muassasalarida ijtimoiy-huquqiy muhitni sog‘lomlashtirish texnologiyalari. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 134 b.
12. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – Toshkent: TDPU, 2017. – 180 b.
13. Zunnunov A. Oila pedagogikasi: darslik. – Toshkent: Sharq, 2012. – 240 b.
14. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
15. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.